



ZAMONAVIY O‘ZBEK TILIDA YANGI SO‘ZLARNING PAYDO BO‘LISHI HAQIDA MULOHAZALAR

Idiyeva Sabina Raxmatullo qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida o‘zbek tili leksikasida yuz berayotgan o‘zgarishlar, xususan, neologizmlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq masalalar tadqiq etiladi. Shuningdek, yangi so‘zlarning shakllanish manbalari, ularning tilda o‘rnashish jarayoni va tilshunos olimlarning ushbu hodisaga nisbatan nazariy qarashlari tahlil qilingan, neologizmlarning ijtimoiy-siyosiy va axborot texnologiyalari sohalaridagi faollashuvi misollar orqali ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: leksika, til taraqqiyoti, o‘zlashma so‘zlar, terminologiya, derivatsiya, semantik siljish, til madaniyati, kalkalash.

Аннотация: В статье исследуются изменения, происходящие в лексике узбекского языка в эпоху глобализации и технологического прогресса, в частности тенденции появления неологизмов. Анализируются источники формирования новых слов, процесс их закрепления в языке, а также теоретические взгляды лингвистов на данное явление. Кроме того, на примерах показана активизация неологизмов в общественно-политической сфере и в области информационных технологий.

Ключевые слова: лексика, развитие языка, заимствованные слова, терминология, деривация, семантический сдвиг, культура языка, калькирование.

Abstract: This article examines the changes occurring in the Uzbek lexicon in the era of globalization and technological development, particularly focusing on trends in the emergence of neologisms. It analyzes the sources of new word formation, the process of their integration into the language, and the theoretical perspectives of linguists regarding this phenomenon. In addition, the article illustrates the increasing use of neologisms in socio-political and information technology spheres through relevant examples.

Keywords: lexicon, language development, loanwords, terminology, derivation, semantic shift, language culture, calquing.

Til jamiyatning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Jamiyat hayotidagi har qanday yangilik, xoh u moddiy buyum bo‘lsin, xoh ilmiy tushuncha, tilda o‘z nomini topishi kerak. Zamonaviy o‘zbek tili mustaqillik yillarida, ayniqsa, XXI asrning ikkinchi choragida misli ko‘rilmagan darajada yangi so‘zlar bilan boyidi. Bu jarayon tilshunoslikda neologizmlar muammosini o‘rganishni dolzarb qilib qo‘ydi.

Neologizmlar masalasi o‘zbek tilshunosligida doimo diqqat markazida bo‘lib kelgan. Yangi so‘z tushunchasiga olimlar turlicha yondashadilar. Taniqli tilshunos olim Azim

Hojiyev o'zining fundamental asarlarida neologizmlarga keng ta'rif beradi: "Neologizm" hayotda paydo bo'lgan yangi narsa-hodisalarni, tushunchalarni ifodalash uchun yaratilgan yoki o'zlashgan so'z va iboralar. Neologizmlar tilda ma'lum muddat yangilik bo'lib turadi, keyinchalik esa umumiste'moldagi so'zlarga aylanib ketadi.

Demak, neologizmning asosiy belgisi uning "**yangilik**" bo'yog'iga ega ekanligidir. Masalan, 2000-yillarning boshida "mobil telefon" yoki "internet" so'zlari neologizm hisoblangan bo'lsa, bugungi kunda ular faol leksik qatlamga o'tib bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan jamiyat hayotiga yangi-yangi **neologizmlar** kirib kelmoqda. Ularning qanchalik faol leksik qatlamga o'tishi yoki davr talabidan so'ng unutilishi jamiyatdagi insonlarning muloqot jarayoniga ham qisman bog'liq deb o'ylayman.

Endi yangi so'zlarning paydo bo'lish manbalariga to'xtalib o'tamiz. Zamonaviy o'zbek tilidagi neologizmlarni kelib chiqishiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin:

Ichki imkoniyatlar asosida yasalgan so'zlar.

Tashqi manbalardan o'zlashgan so'zlar.

Professor Nizomiddin Mahmudov tilning ichki imkoniyatlari haqida yozar ekan, so'z yasash jarayonining faolligini milliy tafakkurning o'sishi bilan bog'aydi. Olimning ta'kidlashicha: "Til o'zining mavjud qurilishi asosida yangi ma'nolarni ifodalashga intiladi, bu esa tilning yashovchanlik qobiliyatidir". Masalan, **tadbirkor, mahalla fuqarolar yig'ini, ko'p qavatli, zamonaviy** kabi so'zlar o'zbek tilining o'z morfemalari yordamida yangi tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda neologizmlarning eng katta oqimi IT sohasi bilan bog'liq. Masalan, "sichqoncha" so'zi ilgari faqat kemiruvchi hayvonni ifodalagan bo'lsa, hozirda kompyuter qurilmasini anglatadi. Bu jarayonda semantik neologizm hodisasi kuzatiladi. Ya'ni, tilda mavjud bo'lgan so'zga yangi ma'no yuklanadi. Shuningdek, "oyna" (ekran), "yuklamoq" (internetdan ma'lumot olish), "bulut" (ma'lumotlarni saqlash texnologiyasi) kabi so'zlar semantik neologizmlarga misol bo'ladi.

Tilshunos olim Sh. Rahmatullayev so'z ma'nolarining taraqqiyoti haqida to'xtalib, ma'no ko'chishi orqali yangi tushunchalarni nomlash til tejamkorligi prinsipi ekanligini qayd etadi. Qolaversa, globallashuv natijasida ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashayotgan so'zlar soni ortib bormoqda. Bularni quyidagicha guruhlash mumkin:

Soha	Neologizmlar
Iqtisodiyot	Startup, investitsiya, klaster, investor
Texnologiya	Bloger, vaynchi, interfays, provayder
Ijtimoiy	Brifing, motivatsiya, kouching, vorkshop



Iqtisodiy sohadagi yangi soʻzlar jamiyatning moddiy hayotidagi tub burilishlarni koʻrsatadi. Avvallari faqat tor doiradagi mutaxassislar tushunadigan terminlar bugun umumisteʼmolga chiqdi.

Investitsiya va Investor: Bu soʻzlar nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy munosabatlarning ham markaziy tushunchasiga aylandi. Ularning oʻrnida "sarmoya" soʻzi boʻlsa-da, xalqaro munosabatlarda "investitsiya" atamasi aniqroq maʼno kasb etadi.

Klaster (Cluster): Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi va sanoatida yangi boshqaruv tizimi sifatida kirib keldi. Bu soʻz "zanjirsimon bogʻlangan korxonalar guruhi" degan murakkab tushunchani bitta soʻzda ifodalashga xizmat qiladi.

Startup (Startup): Innovatsion gʻoyaga asoslangan yangi biznes loyihalarni anglatadi. Bu neologizm yoshlar tadbirkorligi bilan bogʻliq holda tilda oʻrinlashdi.

Lizing (Leasing): "Ijaraga olish" soʻzidan farqli ravishda, uzoq muddatli va keyinchalik sotib olish huquqini beruvchi moliyaviy ijarani ifodalovchi maxsus termin sifatida oʻzlashdi.

Shuningdek, kalkalash (nusxa koʻchirish) usuli ham juda faol. Masalan, "*yashil iqtisodiyot*" (*green economy*), "*yoʻl xaritasi*" (*road map*), "*aqlli shahar*" (*smart city*) kabi iboralar boshqa tillardan nusxa koʻchirish orqali oʻzbek tiliga kirib keldi.

Oxirida til madaniyati va neoneologizmlar muammosi turibdi.

Har qanday yangi soʻz ham tilda ijobiy qabul qilinavermaydi. Akademik B.Yoʻldoshev tilning lugʻat tarkibi boyishi bilan birga, uning sofligini saqlash masalasiga ham eʼtibor qaratadi. "Tilga kirib kelayotgan har bir oʻzlashma uning imlo va talaffuz qoidalariga moslashishi shart, aks holda til leksikasi gʻalizlashadi".

Shu nuqtayi nazardan, oʻzbek tilida muqobili boʻlgan soʻzlar oʻrniga chet soʻzlarini qoʻllash (masalan, lider emas, yetakchi; pablik emas, ommaviy sahifa) til madaniyati nuqtayi nazaridan bahsli masaladir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy oʻzbek tili leksikasining yangilanishi tabiiy va obyektiv jarayondir. Neologizmlar jamiyatning ijtimoiy, ilmiy va madaniy saviyasini koʻrsatuvchi koʻzgudir. Maqolada tahlil qilinganidek, yangi soʻzlarning paydo boʻlishida ham ichki derivatsiya, ham tashqi oʻzlashmalar muhim rol oʻynaydi. Biroq, tilning milliy oʻzligini saqlab qolish uchun neologizmlarni qabul qilishda ilmiy va meʼyoriy yondashuv talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
2. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Maʼnaviyat, 1998.
3. Mengliyev B. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Tafakkur boʻstoni, 2018.
4. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. – Toshkent: Universitet, 2000.





5. Khamroyeva, S., Qizi, U. M. U. B., & Kizi, U. H. A. (2025, September). Regarding the Results of Corpus Linguistics in Turkic Languages. In *2025 10th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK)* (pp. 1707-1711). IEEE.

